

O'ZBEK TILIDA YURISH-HARAKAT FE'LLARINING AKSIONAL TASNIFI

Aziza Odilovna MUMINOVA

Katta o'qituvchi PhD,
Nemis tili va adabiyoti kafedrasi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

АКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Азиза Одильевна МУМИНОВА

PhD старший преподаватель
Кафедра немецкого языка и литературы
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Самарканд, Узбекистан

ACTIONAL CLASSIFICATION OF MOVEMENT VERBS IN THE UZBEK LANGUAGE

Aziza Odilovna MUMINOVA

PhD senior teacher
Department of the German Language and Literature
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan aziza-310187@mail.ru

UDC (УДК, УДК): 81'37: 81'367/625:
811/512/133

Iqtibos keltirish uchun (for citation, для цитирования):

Muminova A. O. O'zbek tilida yurish-harakat
fe'llarining aksional tasnifi//O'zbekistonda
xorijiy tillar. — 2022. — № 1 (42). — B. 47–56.

<https://doi.org/10.36078/1648793442>

Received: December 17, 2021

Accepted: February 17, 2022

Published: February 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi yurish-harakat fe'llarining aksional tasnifi amalga oshirilgan. Muallif, yurish-harakat fe'llarining aksional semantikasini chuqurroq tahlil qilish maqsadida, jahon tilshunoslarining mazkur muammo yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalarini o'rganib, ularga o'z munosabatini bildigan. Ishda, yurish-harakat fe'llari uch: chegaralangan, chegaralanmagan, limitativ neytral xususiyatli fe'llar guruhiga ajratilib, ularning aksional semantikasi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada turkiyshunos olimlarning aksionallik (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, limitativ neytrallik) borasidagi qarashlari va yondashuvlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: yurish-harakat; subyekt; obyekt; leksema; leksik-semantik maydon; semantika; aksionallik; chegaralanganlik; chegaralanmaganlik; limitativ neytrallik; yurish-harakat fe'li; guruh; tasnif; tugallanganlik/tugallanmaganlik; harakat tarzi; funktsional-semantik maydon; analitik shakl.

Аннотация. В статье приводится классификация глаголов движения в узбекском языке. Для более глубокого анализа семантики глаголов движения автор изучил мнения лингвистов из разных стран по этому вопросу и выразил свое отношение к ним. В работе глаголы движения разделены на три группы: предельные, непредельные, лимитативно нейтральные глаголы, и анализируется их семантика действия. В статье также представлены взгляды и подходы тюркских ученых на

акциональность (предельность/непредельность, лимитативно-нейтральность).

Ключевые слова: движения; субъект; объект; лексема; лексико-семантическое поле; семантика; действие; предельность; непредельность; лимитативно нейтральность; глагол движения; группа; классификация; завершенность/незавершенность; способ действия; функционально-семантическое поле; аналитическая форма.

Abstract. The article provides an actional classification of verbs of movement in the Uzbek language. In order to analyze the action semantics of behavioral verbs in more depth, the author studied the opinions of world linguists on this issue and expressed his attitude to them. In the work, behavioral verbs are divided into three groups: bounded, unbounded, limitative neutral verbs, and their action semantics are analyzed. The article also presents the views and approaches of Turkic scholars on action (bounded/unbounded, limitative-neutral).

Keywords: behavior; subject; object; lexeme; lexico-semantic field; semantics; action; bounded; unbounded; limitative neutral; behavioral verb; group; classification; completion/incompleteness; movement style; functional-semantic field; analytical form.

Yurish-harakat lingvistik tushuncha bo'lib, u subyektning muayyan makonda oyoqlar yoki transport vositalari yordamida amalga oshiradigan harakatini ifodalash uchun qo'llaniladi (11, 39). Subyektning shunday harakatini aks ettiruvchi fe'llar tilshunoslikda yurish-harakat fe'llari deb ataladi. Har bir fe'l u qanday harakatni ifodalashidan qat'iy nazar, o'zining leksik ma'nosiga egadir. O. E. Mavlonberdiyevaning fikricha, so'zning leksik ma'nosi tilga bog'liq bo'lmagan borliq bilan o'zaro chambarchas bog'liqlikda bo'lib, u ikki ko'rinishda bo'ladi: 1) signifikativ ma'no, 2) denotativ ma'no. Har bir harakat fe'li leksemasi boshqa fe'llardan denotativ ma'nosi orqali farqlanadi, hamda ular signifikativ ma'no doirasida birlashadi. So'zlarning ma'no jihatidan bunday bog'langanligi bitta tematik guruhni, bitta semantik maydonni tashkil etadi (8, 25).

Olimaning ushbu qarashlari yurish-harakat fe'llari doirasiga ham mos keladi. Xuddi shunday, yurish-harakat fe'llari ham fe'l leksemasi tizimida o'ziga xos semantik maydonni tashkil etib, barcha yurish-harakat fe'llari mazkur leksik-semantik maydon doirasida birlashadi. Tilimizda mavjud bo'lgan fe'llarni semantik jihatdan chuqur o'rganishda ularni har tomonlama tasniflash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, leksik-semantik, aksional tasnif shular jumlasidandir. Mazkur maqolamizda o'zbek tilidagi yurish-harakat fe'llarining aksional semantikasini aniqlash maqsadida, biz ularni aksional jihatdan guruhlariga ajratamiz. Fe'llarning aksional semantikasini aniqlashda ularni chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, limitativ neytrallik guruhlariga ajratish muhimdir, chunki bunday tasnif fe'l semantikasini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun katta yordam beradi. Shu o'rinda, aksional tasnif tushunchasiga izoh berish o'rindir. E. V. Paduchevaning ta'kidlashicha, aksional tasnif – bu jonli va rivojlanuvchi sohadir (15, 8–11).

Bizning fikrimizcha, aksional tasnif bu — fe'llarni chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, limitativ neytrallik xususiyatiga ko'ra guruhlanishidir. Yu. S. Maslovning fikricha, chegaralanganlik bu — fe'l semantikasiga kiruvchi hamda, fe'lning ichki chegarasiga qaratilgan va har

bir harakatga tabiiy tarzda berilgan ichki chegarani ifodalaydi. Odatda, har bir harakat o'z oqimiga ko'ra o'sha chegaraga yo'naltirilgan bo'ladi hamda ushbu chegaraga yetganda harakat o'z yakuniga yoki tugal nuqtasiga erishadi. Chegaralanmaganlik — bu ichki chegaraning mavjud emasligidir (9, 11).

Jahon tilshunosligida fe'llarni aksional jihatdan tasniflash ilk bora L. Vendler tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik (Melig, Buligina, Maslov, Rizayev, Raxmankulova, Xolod, Mirsanov)lar tomonidan ham amalga oshirilgan. Mazkur masalani turkiy tillar, xususan, o'zbek tili doirasida o'rganadigan bo'lsak, dastavval ushbu muammoning o'rganilish tarixiga nazar solish maqsadga muvofiqdir. Turkiy tillarda morfologik-grammatik tus kategoriyasining mavjud emasligi haqidagi fikr o'z tasdig'ini topgunga qadar, turkiy tillardagi fe'llarning chegaralanganlik ma'nosi tugallangan tus hamda chegaralanmaganlik esa tugallanmagan tus sifatida qabul qilinar edi (12; 4). Bunday qarashni I. G. Koshevaya ishida ham kuzatish mumkin. Muallif turkiy tillardagi chegaralanganlikni tusga oid kategoriya sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, (ingliz tilida)gi perfektivlik/imperfektivlik tusning tugallanganlik/tugallanmaganlik ma'nosining aynan o'zidir (6, 229).

Turkiy tillardagi chegaralanganlik muammolariga doir keyingi ishlarda harakat tarzi va aksionallik atamaları umumlashtirilgan shaklda qo'llanilganini ham ko'rish mumkin. Masalan, turk va boshqa turkiy tillarni qiyosiy tarzda o'rgangan P. I. Kuznetsov turkiy tillardagi harakat tarzi ma'nosini umumlashtirib, "aksional" atamasini qo'llashni taklif etgan. Uning fikricha, "aksional", "aspekt" atamasiga qarama-qarshi bo'lib, aksional "Aksionsart" dan kelib chiqqan hosiladir (7, 71). V. G. Guzev ushbu ma'nolarni umumlashtirib, "акционсартовый" atamasini qo'llagan (5, 22). Ammo keyingi tadqiqot ishlarida aspektuallik atamaları bo'lmish tus, chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, harakat tarzi kabilar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ammo bir-biridan farq qiluvchi tushunchalar sifatida talqin qilina boshladi.

Turkiy tillarda chegaralanganlik/chegaralanmaganlik muammolari F. A. G'aniyev, A. N. Tixonov, P. I. Kuznetsov, E. A. Grunina, R. M. Biryukovich, L. Yuxanson, K. Shyonig va b. tomonidan o'rganilgan. Tilshunoslar ushbu tushunchani turlicha talqin etishgan. Jumladan, Yu. Maslov chegaralanganlik/chegaralanmaganlikni har qanday harakat va holatning ichki mazmun-mohiyatini ifodalovchi kategoriya bo'lib, u aspektuallik funktsional-semantik maydonini hosil qiluvchi tillararo universal hodisa ekanligini qayd etgan (10).

A. A. Xolodovichning ham masala borasidagi qarashlari Yu. Maslov fikriga o'xshash. Olimning ta'kidlashicha, fe'llarning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatiga ko'ra guruhlanishi universal va tillararo xarakterga ega bo'lishi lozim. Chunki qaysi til misolida ko'rilsa ham садится — chegaralangan, петъ — chegaralanmagandir (17, 7). Chegara tushunchasi D. I. Nasilovning talqinida fe'llarni aksional jihatdan chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratish bilan bog'liq tushunchadir. Chegaralanganlik — fe'l leksemasining o'z semantikasida ichki chegaraning mavjudligidir. Chegaralanmaganlik o'sha chegaraning yo'qligidir. Olimning fikricha, fe'llarni chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratishda fe'l leksemasining holat yoki harakatni ifodalashi ham muhim belgidir. Muallif o'z ishida holat fe'llariga subyektning jismoniy holatini ifodalovchi

(sirqira-), emotsional-ruhiy holatni ifodalovchi (shumshay-, mo'ltay-), jonli tabiat yoki subyektga xos bo'lgan (pildira-), tabiat hodisalarini ifodalovchi (jildira-, guldira-) kabilarni ajratib, mazkur fe'llar jarayonning faqatgina o'rta fazasini ifodalaganligi bois, ular aksional jihatdan chegaralanmagan fe'llar guruhini tashkil etishini ta'kidlaydi. Shunday qilib, muallif o'zbek tilida 500 dan ortiq chegaralanmaganlik aksional semantikasiga ega bo'lgan fe'l leksemalarini ko'rsatib beradi (13, 127–150).

Chegaralanmaganlik tushunchasiga zid bo'lgan chegaralanganlik olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflangan: "M. A. Shelyakinning tabiriga ko'ra, chegaralangan xususiyatli fe'llar ma'lum bir maqsadga yoki mo'ljalga yo'naltirilgan harakatni ifodalaydi" (19, 48). A. A. Xolodovichning fikricha, chegaralanganlik guruhiga kiruvchi fe'llar natijaviy harakatni bildiradi (18, 138).

D. I. Nasilovning ham bu boradagi qarashlari A. A. Xolodovich fikriga o'xshash, ya'ni olim chegaralanganlik guruhiga mansub fe'llarning aksional strukturasi birmuncha murakkab va xilma-xil bo'lishini ta'kidlaydi. Bunday fe'llar umumiy belgi xususiyatiga ko'ra natijaviylik, harakatning oxirgi nuqta yoki chegaraga intilishi kabi turli sifatlarga ega bo'lsa-da, ular yagona bir chegaralanganlik guruhiga birlashadilar. Muallif o'zbek tilida 1600 dan ortiq chegaralangan aksional semantikali fe'llar mavjud ekanligini qayd etgan. Masalan: tarvay-, kengay-, gerday-, qoray-, uzay-, yumsha-, boyi-, qisqar-, oqar-, keksar- va b. Olimning yozishicha, harakat fe'llari leksik-semantikasining o'ziga hos muhim jihati ularning chegaralanganlik xususiyati bilan xarakterlanishidadir. Holat fe'llari esa, asosan, chegaralanmagan xususiyatli bo'ladi. Harakat va holat fe'llari leksik semantikasida harakatning aktivligi/noaktivligi ya'ni dinamik va statikligi bilan ham o'zaro farqlanadi (13, 80–158).

Yu. Maslovning ham bu boradagi qarashlari D. I. Nasilov fikriga o'xshash. Olim holat fe'llari orqali ifodalangan harakat noaktiv va statik bo'lishini qayd etadi. Shuning uchun bunday fe'llar yagona bir semantik turni, ya'ni chegaralanmaganlik yoki holat fe'llari guruhini tashkil etadi (9, 18).

Tilshunos Z. Vendler tadqiqotida ham shunday qarashlarni kuzatishimiz mumkin. Olim fe'llarni semantik jihatdan ikki guruhga tasniflagan. Uning fikricha, fe'l leksemasi ikki asosiy belgi, ya'ni statiklik/dinamiklik asosida shakllanadi. Holatni ifodalovchi fe'llar (statik fe'llar: kasallanmoq, uxlammoq, yashamoq) dinamik xususiyatga ega bo'lgan fe'llar guruhiga qarama-qarshi qo'yiladi. Dinamik fe'llar statik fe'llardan farqli o'laroq (stabil) turg'un situatsiyalarni ifodalaydi. Dinamik xarakterdagi fe'llar doimiy energiyani talab qiluvchi fe'llardir, masalan: *держатъ* – ushlab turmoq (1, 30).

Tilshunos V. A. Plungyan dinamik harakatni bildiruvchi fe'llar chegaralangan, statik harakatni bildiruvchi holat fe'llari chegaralanmagan aksional xususiyatga ega ekanligini qayd etadi (16, 247).

Ko'rinadiki, ko'pgina tilshunoslar (Maslov, Nasilov, Plungyan, Baligina) fe'llarni chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratishda ularning dinamiklik/statiklik xususiyatini muhim omil sifatida baholashmoqda.

A. G'aniyev chegaralanganlik/chegaralanmaganlikni leksik-semantik hodisa sifatida o'rganib, tatar tilidagi fe'llarni uch: chegaralangan (*капларга*-, *ташерге*-, *табарга*-, *сындырырга*- va b.), chegaralanmagan

(*уйланырга-, эзмрге-, тузерже-* va b.) hamda kontekst tarkibida ba'zan chegaralangan, ba'zida chegaralanmagan aksional ma'noni ifodalovchi neytral fe'llarga (*укырга-, ятарга-, язарга-, утырырга -* va b.) ga ajratgan (3, 377–382).

D. I. Nasilov turkiy tillardagi aksionallik muammolarini o'rganishda asosiy e'tiborni yetakchi va ko'makchi fe'l munosabatidan hosil bo'ladigan analitik shakllarga qaratadi. Olim masala yechimining mushkulligini ushbu tillardagi harakat tarzining nafaqat sintetik ko'rsatgichlar balki, analitik shaklli fe'llar orqali ifodalanganligi bilan bog'laydi. Shu sababli ham muallif turkiy tillardagi analitik shakl orqali ifodalangan harakat tarzi va fe'llarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladigan qo'shma fe'llarni farqlash lozimligini ta'kidlaydi (13, 106).

Turkiy tillarga hos bo'lgan (analitik asosli) qo'shma fe'llarni chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratishda A. G'aniyev asosiy e'tiborni ko'makchi fe'lga qaratadi. Muallif "Agar ko'makchi fe'l chegaralangan bo'lsa, yetakchi fe'l ham chegaralangan, agarda ko'makchi fe'l chegaralanmagan bo'lsa, yetakchi fe'l ham chegaralanmagan xususiyatli bo'ladi" — deb qayd etadi (2, 104).

Ko'rinadiki, olim turkiy tillardagi analitik shakllarni aksional jihatdan tahlil qilganda fe'lning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik ma'nosi ko'makchi fe'lga bog'liq ekanligini qayd etmoqda.

O'zbek tilshunosligida yurish-harakat fe'llarining aspektual jihatdan chuqur tahlil qilingan ish sifatida G'. Q. Mirsanovning "Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasini qayd etishimiz lozim. Muallif o'zbek tilidagi yurish-harakat fe'llarini leksik-semantik guruhlariga ajratgan holda, ularning aksional (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, limitativ neytral) xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Bu aksional xususiyatlar analitik shakllar o'zaro birikishida murakkab birikmalarning aspektual ma'nolarini to'raligicha ochib berishga xizmat qiladi. Olimning tasnifida o'zbek tilidagi chegaralanganlik xususiyatiga ega fe'llar quyidagicha ko'rinish oladi:

a) so'zlovchi yoki obyektga yo'nalganlik fe'llari: *kelmoq, kirmoq, yaqinlashmoq, yetmoq, qaytmoq* va b.

b) obyektidan "uzoqlashish" ma'nosini ifodalovchi yurish-harakat fe'llari: *ketmoq, jo'namoq, bormoq, chiqmoq, chekinmoq, uzoqlashmoq, yiroqlashmoq* va *yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq* qo'shma fe'llari;

v) obyektidan "o'tish" ma'noli fe'llar: *o'tmoq, oshmoq* va b.

g) bir aktlilik fe'llari: *chiqmoq, kirmoq*;

2. Ikki aksional xususiyatli fe'llar guruhiga:

a) subyektning makondagi harakatini bildiradigan fe'llar: *yurmoq, suzmoq, uchmoq*;

b) intensiv harakatni bildiruvchi *chopmoq, yugurmoq* fe'llari;

3. Chegaralanmagan aksional semantikali yurish-harakat fe'llariga harakatning tarzini bildiradigan:

a) *yo'rg'alamoq, dikillamoq, emaklamoq* va boshqalar;

b) harakatning keng makondagi yo'nalishsiz harakati: *daydimiq, kezmoq* va boshqalar kiradi (11, 52).

Muallif tasnifidagi chiqmoq fe'li ham ob'yecktdan "uzoqlashish" ma'nosini ifodalovchi ham, bir aktlilik fe'llar guruhiga kiritilmoqda. Shuningdek, tadqiqotchi ikki aksional xususiyatli fe'llar guruhiga kiruvchi bormoqni ob'yecktdan "uzoqlashish" ma'nosini ifodalovchi fe'llar guruhiga kiritgan.

Tasnifda berilgan yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq qo'shma fe'llari ham obyektga yaqinlashish ham uzoqlashish ma'nosini ifodalashi mumkin. Olimning ta'kidlashicha, o'zbek tilidagi fe'llarning aksional xususiyati grammatik shaklga ham ta'sir etishi mumkin. Jumladan, chegaralanmagan xususiyatli yurish-harakat fe'llari morfologik bahsda analitik shakl hosil qila olmaydi. Ular gapda faqatgina ravishdosh vazifasida subyekt harakati tarzini, usulini ifodalab keladi. Muallifning ushbu fikrini o'zimizning misollar orqali ko'rib chiqamiz. Masalan: 1) Hammadan cholning tuyadan qo'rqmasligi meni qiziqtiradi. U notinch tuyalar orasida munkillab, kalovlanib bemalol yuradi (14, 7);

2) Bobom tobi qochib, kasalmand bo'lib surgalib yuradi-da, birvarakay yotib qoladi (14, 45).

Keltirilgan (1) misoldagi munkillamoq hamda kalovlanmoq va (2) dagi surgalanmoq fe'llari sub'yektning makondagi maqsadsiz, yo'nalishsiz harakatining amalga oshish tarzini, ma'lum bir sabab (kasallik, qarilik, yoki jismoniy nuqson) tufayli o'ziga xos tarzda harakatlanish usulini ifodalamoqda. Misollardan ko'rinib turibdi-ki, o'zbek tilidagi chegaralanmagan xususiyatli yurish-harakat fe'llari gapda *-ab*, *-ib* ravishdosh qo'shimchalarini qabul qilsa-da, lekin analitik shakl hosil qilmagan holda subyektning harakatlanish tarzini ifodalamoqda.

Yuqorida qayd etib o'tilgan fikrlardan oydinlashadiki, turkiy tillardagi fe'llarni aksional jihatdan guruhlariga tasniflashda ikki xil qarash yuzaga kelmoqda. Bunda birinchi oqim vakillari (Xolodovich, Nasilov, Baligina) ishlarida fe'llar ikki: chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, (G'aniyev, Rizayev, Mirsanov) ishlarida uch: chegaralangan/chegaralanmagan va limitativ neytral fe'llar guruhiga ajratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz o'z tadqiqotimizda ikkinchi guruh olimlari tamoyiliga asoslangan holda fe'llarni aksional jihatdan uch guruhga tasniflaymiz. Yurish-harakat fe'llarini aksional guruhlariga ajratganda, bir necha leksik-semantik guruhni bir aksional guruhga birlashtirish mumkin. Xususan, yurish-harakat fe'llarining chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratilishida yo'nalish ma'nosiga ega yoki ega emasligiga e'tibor qaratiladi. Shu bois, yurish-harakat fe'llarini quyidagi aksional guruhlariga ajratamiz:

1) chegaralangan; 2) chegaralanmagan; 3) ikki aksional xususiyatli yurish-harakat fe'llari.

Chegaralanganlik semantikasiga mansub yurish-harakat fe'llarini yana o'z navbatida bir necha kichik guruhchalarga ajratish mumkin:

a) subyekt yoki obyekt tomon yo'nalish ma'nosini ifodalovchi fe'llar: kelmoq, kirmoq, yaqinlashmoq, yetmoq, va b.;

b) subyekt yoki obyektidan uzoqlashish ma'nosini ifodalovchi yurish-harakat fe'llari: ketmoq, chiqmoq, chekinmoq, uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, qaytmoq fe'llari va yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq, yo'l solmoq, kabi qo'shma fe'llar. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq, yo'l solmoq qo'shma fe'llarini ham ob'yektidan uzoqlashish, ham obyektga yaqinlashish ma'nosini ifodalovchi fe'llar guruhiga kiritish mumkin. Chegaralanganlik guruhiga mansub yurish-harakat fe'llari semantik qo'llanilishi, yo'nalish ma'nosi turlicha bo'lishiga qaramasdan ular bir xilaksionalma'noli chegaralangan fe'llar guruhiga birlashadi. Chunki ushbu fe'llar

semantikasida yakuniy nuqtaga intilish, muayyan obyekt tomon yo'nalganlik ma'nolari mavjud.

2. Chegaralanmagan semantikasi yurish-harakat fe'llari guruhiga sub'yektning maqsadsiz va yo'nalishsiz harakatini ifodalovchi fe'llarni kiritish mumkin. Ular ham o'z navbatida kichik guruhchalarga bo'linadi.

a) sub'yektning harakatlanish usulini bildiruvchi: yo'rg'alamoq, dikkillamoq, emaklammoq, o'rmalammoq, zing'illamoq, sudralmoq, pildiramoq, dingillamoq, dikanglammoq, chayqalmoq, tebranmoq va b.

b) sub'yektning keng makondagi yo'nalishsiz harakatini ifodalovchi: daydimmoq, kezmoq, tentirammoq, izg'imoq, sang'imoq (sanqimoq), sandiroqlamoq kabi fe'llar;

v) sub'yektning o'ziga xos (biror kasallik, og'riq, nuqson va b. sababli) harakatlanishini ifodalovchi: oqsamoq, cho'loqlanmoq va b. ni kiritish mumkin. Chegaralanmagan semantikasi fe'llar, asosan, ravishdosh shaklining -ib, -ab qo'shimchasini olgan holda, gapda tarz xoli vazifasida keladi. Bunday fe'llarning semantik (potentsiali) imkoniyatida chegara, mo'ljalga intilish ma'nosi mavjud emas. Chegaralanmaganlik semantikasiga ega bo'lgan yurish-harakat fe'llari faqatgina sub'yektning harakatlanish usuli va tarzini hamda maqsadsiz, yo'nalishsiz harakatini ifodalaydi.

3. Ikki aksional xususiyatli (limitativ neytral) fe'llar ba'zan chegaralanganlik, ba'zida chegaralanmaganlik ma'nosini ifodalashi mumkin. Bunday fe'llarga:

a) sub'yektning muayyan makondagi maqsadli/madsadsiz harakatini bildiradigan fe'llar: yurmoq, bormoq, suzmoq, uchmoq hamda qanot qoqmoq, parvoz qilmoq, qanot yozmoq, qadam bosmoq kabi qo'shma fe'llar; b) sub'yekt harakatining tez sur'atini bildiruvchi qochmoq, chopmoq, yugurmoq fe'llari kiradi.

Ikki aksional xususiyatli (limitativ-neytral) fe'llarning kontekst qurshovi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday fe'llar jumla tarkibidagi turli lisoniy vositalar ta'sirida ba'zan chegaralanganlik, ba'zan chegaralanmaganlik ma'nosini bildirishi mumkin.

Demak, yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan xulosa qilsak, aksionallik (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik) fe'llarning aspektual jihatdan guruhlanishi bo'lib, chegaralanganlik — fe'lning o'z leksik potentsialida ichki chegaraning mavjudligidir. Chegaralanmaganlik — fe'l semantikasida xuddi o'sha chegaraning yo'qligidir. Chegaralanganlik va chegaralanmaganlik aksional semantikani umumlashtiruvchi, bitta fe'l semantikasida ana shu ikki xususiyatning mavjudligi limitativ neytrallikdir. Ya'ni bir fe'l leksikasida bir vaqtning o'zida ikki qarama-qarshi aksional belgilar (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik)ni mavjud bo'lishi limitativ neytrallikni hosil qiladi. O'zbek tilidagi fe'llarni aksional jihatdan tahlil qilganimizda, ularda chegaralanganlik/chegaralanmaganlik hamda limitativ neytrallik xususiyatlari namoyon bo'ldi.

Unga ko'ra:

O'zbek tilidagi chegaralanganlik xususiyatiga ega bo'lgan fe'llar sub'yektning ma'lum bir mo'ljalga ega bo'lgan, yo'nalishli yurish-harakatini ifodalaydi.

2. O'zbek tilidagi chegaralanmagan xususiyatli fe'llar sub'yektning keng makondagi mo'ljalsiz, yo'nalishga ega bo'lmagan yurish-harakati tarzini va uni amalga oshirish usulini aks etadi.

3. O'zbek tilidagi ikki aksional xususiyatli (limitativ neytral) fe'llar semantikasida ham chegaralanganlik ham chegaralanmaganlik ma'nolari mujassam bo'ladi. Bunday xususiyatli fe'llar kontekst tarkibidagi turli lisoniy vositalar ta'sirida ba'zan chegaralanganlik, ba'zida chegaralanmaganlik semantikasiga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Балыгина Е.Д. Особенности семантики глагольных лексем (на материале турецких глаголов движения) // Вопросы тюркской филологии (Материалы Дмитриевских чтений). — М., 2007. Вп., VII. — С. 23–40.
2. Ганиев Ф.А. Видовая характеристика глаголов татарского языка. — Казань, 1963. — 180 с.
3. Ганиев Ф.А. К вопросу о сложном глаголообразовании в тюркских языках // Проблемы общности алтайских языков. — Л., 1971. — С. 25–28.
4. Ганиев Ф.А. Способы действия глагола в татарском языке. — Казань, 2004.
5. Гузев В.Г. Система тюркских словоизменительных категорий в функционально-семантическом аспекте: На материале староанатолийского-тюркского языка: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — Л., 1986. — 31 с.
6. Кошечая И.Г. Типологические структуры языка: Сфера видо-временных значений. — Киев, 1972. — 234 с.
7. Кузнецов П.И. Аспект и акционал в турецком языке (К выходу в свет монографии ЖИ. Иохансона) // Советская тюркология. 1975. — № 3. — С. 68–81.
8. Мавлонбердиева О.Е. Сопоставительная характеристика глаголов движения в русском и узбекском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Худжанд, 2011. — 24 с.
9. Маслов Ю.С. Роль так называемой перфективации и имперфективации в процессе возникновения славянского глагольного вида. — М., 1958.
10. Маслов Ю.С. Очерки по аспектологии. Изд-во Ленинградского ун-та, — Л., 1984. — 262 с.
11. Мирсанов Ғ.Қ. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг акционал ва аспектual хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. — Самарқанд, 2009. — 155 б.
12. Насилов Д.М. Качественная аспектualность в тюркских языках // Востоковедение. Вп. 12: Филологические исследования. — Л., 1986. — С. 53–59.
13. Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии. — Л.: Наука, 1989. — 207 с.
14. Ойбек. Болалик — Т.: Ўқитувчи, 1979. — 271 б.
15. Падучева Е.В. Акциональная классификация глаголов и семантика союза пока // Вопросы языкознания. — М.: 2015. — № 5. — С. 7–25.
16. Плунгян В.А., Рахилина Е.В. По поводу “локалистской” концепции значения: предлог под // Исследования по семантике предлогов. — М.: Русские словари, 2000. — С. 115–133.
17. Холодович А. А. О предельных и неопредельных глаголах (по данным корейского и японского языков) // Филология стран Востока. — Л.: Изд-во ЛГУ, 1963, — № 14. — С. 3–11.

Холодович А.А. Проблемы грамматической теории. — Л., 1979. — 304 с.

18. Шелякин М.А. Предельные и непредельные глаголы несовершенного вида // Семантика и функционирование категории вида русского языка: Вопросы русской аспектологии III. — Тарту, 1978. — С. 43–63.

References

1. Baligina E.D. *Osobennosti semantiki glagolnix leksem (na materiale turetskix glagolov dvijeniya)*, *Voprosi tyurkskoy filologii (Materiali Dmitrievskix chteniy)* (Features of the semantics of verbal lexemes (based on Turkish verbs of motion), Issues of Turkic Philology (Materials of Dmitriev's Readings), M.: 2007. Vp., VII. pp. 23–40.

2. Ganiev F.A. *Vidovaya xarakteristika glagolov tatarskogo yazika* (Species characteristics of the verbs of the Tatar language), Kazan, 1963. 180 p.

3. Ganiev F.A. *K voprosu o slojnom glagolobrazovanii v tyurkskix yazikax*, *Problemi obshnosti altayskix yazikov* (On the issue of complex verb formation in the Turkic languages, Problems of the generality of the Altai languages). L.: 1971. pp. 25–28.

4. Ganiev F.A. *Sposobi deystviya glagola v tatarskom yazike* (Modes of action of verbs in the Tatar language). Kazan, 2004.

5. Guzev V.G. *Sistema tyurkskix slovoizmenitelnix kategoriy v funktsionalno-semanticheskom aspekte*: (The system of Turkic inflectional categories in the functional-semantic aspect): Based on the material of the Old Anatolian-Turkic language): Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. L.: 1986. 31 p.

6. Koshevaya I.G. *Tipologicheskie strukturi yazika: Sfera vido-vremennix znacheniy* (Typological Structures of Language: The Sphere of Species-Temporal Values). Kiev, 1972. 234 p.

7. Kuznetsov P.I. *Aspekt i aksional v turetskom yazike* (K vixodu v svet monografii L.I. Ioxansona) // *Sovetskaya tyurkologiya* (Aspect and action in Turkish // Soviet Turkology. 1975. No 3. pp. 68–81.

8. Mavlonberdieva O.E. *Sopostavitelnaya xarakteristika glagolov dvijeniya v russkom i uzbekskom yazikax* (Comparative characteristics of verbs of motion in Russian and Uzbek languages): Authorf. diss. cand. filol. science. Xudjand, 2011. 24 p.

9. Maslov Yu.S. *Rol tak nazivaemoy perfektivatsii i imperfektivatsii v protsesse vozniknoveniya slavyanskogo glagolnogo vida*. (The role of the so-called perfectivation and imperfectivation in the process of the emergence of the Slavic verb form). M., 1958.

10. Maslov Yu.S. *Ocherki po aspektologii* (Essays on aspectology), L.: 1984. 262 p.

11. Mirsanov G. Q. *Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari* (Actional and aspectual features of the verbs of action-movement in English and Uzbek): candidate's thesis, Samarkand, 2009. 155 p.

12. Nasilov D.M. *Kachestvennaya aspektualnost v tyurkskix yazikax*, *Vostokovedenie*. Vp. 12: *Filologicheskie issledovaniya*. (Qualitative perspective in the Turkic languages, Oriental studies. 12: Philological studies), L.: 1986. pp. 53–59.

13. Nasilov D.M. *Problemi tyurkskoy aspektologii* (Problems of Turkic aspectology), L.: Nauka, 1989. 207 p.

14. Oybek. *Bolalik* (Childniss), T.: O'qituvchi, 1979. 271 p.
15. Paducheva Voprosi yazikoznaniya. M.: 2015. No 5. pp. 7–25.
16. Plungyan V.A., Raxilina E.V. *Po povodu "lokalistskoy" kontseptsii znacheniya: predlog pod., Issledovaniya po semantike predlogov* (Concerning the "localist" concept of meaning: the preposition under. Studies on the semantics of prepositions), M.: Russkie slovari, 2000. pp. 115–133.
17. Xolodovich A.A. *O Filologiya stran Vostoka*, Philology of the East L.: Izd- vo LGU, 1963, No 14. pp. 3–11.
18. Xolodovich A.A. *Problemi grammaticheskoy teorii* (Problems of grammar theory), L., 1979. 304 p.
19. Shelyakin M.A. *Predelnie i nepredelnie glagoloi nesovershennogo vida, Semantika i funktsionirovanie kategorii vida russkogo yazika: Voprosi russkoy aspektologii* (Limit and infinitive imperfective verbs, Semantics and functioning of categories of aspect of the Russian language: Issues of Russian aspectology III), Tartu, 1978. pp. 43–63.